



Jadid

adabiy, ilmiy-ma'rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta



@Jadidrasmiy



@Jadidmediauz



@Jadidrasmiy



@Jadid_uz

G'OLIBLAR GERMANIYADA

“...Berlin shahridagi ta'lim va madaniyat muassasalari bilan tanishuv davomida ishtirokchilar dastlab Borsigwalder Grundschule maktabida bo'lib, o'quvchilar bilan muloqot qildilar. Uchrashuv davomida tanlov g'oliblari jadidlar ijodi, o'zbek madaniyati, milliy an'analar va O'zbekistonning zamonaviy taraqqiyoti haqida taqdimotlar o'tkazdilar...”



(2-sahifada o'qing)

YETTIKUN

GLOBAL SIYOSAT, YIRIK KAPITAL VA RENESSANS

So'nggi hafta Yangi O'zbekistonning zamonaviy tarixiga, shubhasiz, eng sermahsul, faol va strategik jihatdan muhim davrlardan biri sifatida muhurlanadi.

Bir hafta ichida O'zbekiston xaritasida Kavkaz portlaridan tortib, Sharqiy Yevropaning sanoat markazlarigacha bo'lgan yangi yo'nalishlar chizildi.

Dunyo moliya tizimini nazorat qiluvchi 14 trillion dollarlik sarmoyaga ega yirik kompaniya Toshkentga ishonch bildirdi.

Islom ma'rifatining asl mohiyati butun dunyo olimlari ishtirokida qayta talqin etildi.

(Davomi 2-sahifada.)

SEMINAR



ZOMINDA yana adabiyot bayrami

Adabiyot – millat qalbining jarangdor sadosidir. Har bir xalq asl qiyofasini o'zining adabiyoti orqali namoyon qiladi.

Prezidentimiz tashabbusi bilan tashkil etilgan an'anaviy Zomin seminari qariyb o'ttiz yildirki, yosh iste'dodlarni kashf etish uchun katta bir sahna vazifasini o'tayapti. 7–9-iyul kunlari Zominning so'lim tabiati bag'rida navbatdagi anjuman bo'lib o'tdi. Unda respublikamizning barcha hududlaridan 136 nafar yosh qalamkash ishtirok etdi. Ular orasida ijod maktablarining iste'dodli o'quvchilari ham bor. Har yilgidan farqli o'laroq, bu galgi tadbir qamrovi kengaygan: qo'shni Tojikiston, Qozog'iston, Qirg'iziston davlatlarida o'zbek tilida ijod qilayotgan yosh ijodkorlar ham taklif etildi.



(Davomi 8-sahifada.)

ILM YO'LI

MONTESSORI FAQAT ZAMONAVIY MAKTABMI?

“Namuna”
xalqaro
Montessori
maktabi
asoschisi
Muhammad
RASUL bilan
suhbat



– Bilamizki, yurtimizda Montessori mutaxassislari tayyorlovchi oliy-gohlar yo'q. Siz esa birinchilardan bo'lib haqiqiy Montessori ta'lim tizimida faoliyat yuritadigan “Namuna” xalqaro maktabini ochgansiz. Bosib o'tgan yo'lingiz haqida to'xtalib o'tsangiz.

– Assalomu alaykum. Dastlab Jahon tillari universitetining ingliz tili fakultetini tamomladim. Keyin Latviyaga magistratura yo'nalishiga o'qishga kirdim. O'qish bilan bir paytda qisman Montessori maktabida ham ishladim. Montessori metodi, falsafasiga qiziqish shu ondano boshlandi va O'zbekistonga ham bu metodni olib kirish ishtiyoqida yona

boshladim. Chunki Maria Montessori ishlab chiqqan bu metod dunyoning qaysi burchagida bo'lishidan qat'i nazar har bir bolaga mos keladi.

– Ushbu ta'lim tizimi butun dunyoda mashhur. Hatto, ba'zi davlatlar maktabgacha va maktab ta'lim tizimida Montessori metodidan to'liq foydalanishi haqida o'qiganmiz. Lekin hali-hanuz bu haqda ko'pchilik to'la ma'lumotga ega emas. Uning mohiyati va falsafasi haqida gapirib bersangiz.

– Montessori maktabining eng katta yutug'i bolaning tabiiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashida.

(Davomi 6-sahifada.)

TAKLIF

ADIBLAR XIYOBONI

turkiy xalqlar madaniy birligining ramzidir!

Bir millatning tarixiy xizmatlari faqatgina muazzam binolar va moddiy obidalar bilan bogliq emas, balki ilm-fan bo'yicha yaratgan ma'naviy yodgorliklari bilan ham baholanadi. Bu voqelikni jahondagi katta-kichik mamlakatlar misolida ko'rish mumkin. Xususan, Misrdagi buyuk ehromlar va ularning hayratlanarli qurilish san'ati, yunon ilm-fani yodgorliklari, shuningdek, Hindiston va Xitoyning madaniy merosi fikrimizga shahodat beradi.

Bu yutuqlar tarix zarvarlarida o'z aksini topgan bo'lib, ularning isboti minglab nodir qo'lyozmalarni saqlab kelayotgan o'zimizning hamda jahonning yirik kutubxonalarida mujassamdir. Shuningdek, bugungi kunda ham Misr va Erondan tortib, Hindiston, Afg'oniston va qadim Turkiston zaminida qad ko'tarib turgan shukuhli binolar, yirik olim va shoirilarimiz yaratgan ilmiy asarlar hamda tengsiz adabiy yodgorliklar ushbu tarixiy shijoatning inkor etib bo'lmay dalillari hisoblanadi. Endilikda ushbu moddiy va ma'naviy boyliklarni chuqur o'rganib, xalqimizga va jahon ahliga namoyish etish bizning bosh vazifamizdir.

(Davomi 3-sahifada.)

VATAN MANZUMASI

Va'da

Yam-yashil dalada yayraydi diling,
Ruhingni erkalab esadi shamol.
Bir yonda sollanib tut marjon terar,
Bir yonda soch tarab turar majnuntol.

Tangadek oftobni yerga tushirmas
Yaprog'i kaftimdek chinor, teraklar.
Bahor nasimidek mayin kuy chalar
Maysalar raqsiga oshiq yuraklar.

Naqadar otashin kechmoqda hayot,
Bosh uzra aylanar qismat romchisi.
Qalbingni hayratga solar har lahza
Ichingga sig'magan quvonch tomchisi.

Yurak ne istaydi ilhomdan bo'lak?
Bobolar qoni bor jo'shqin bu tanda.
She'r yozmay bo'larmi hapriqsa yurak
Taqqirim bitilgan aziz Vatanda'?

Gar boqsam samoga betakror zamin,
Bedov tug'yonlarim sig'mas osmonga.
Men buyuk qo'shiqlar taqdim etgaysan
Buyuklar maskani – O'zbekistonga!

Nizomiddin ESHMURODOV,
Respublika Zomin seminari
ishtirokchisi



FAKT


✓ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev davlat boshqaruvining yagona integratsiyalashgan raqamli platformasini joriy etish, startaplar ekotizimini rivojlantirish hamda telekommunikatsiya sohasida tadbirkorlik muhitini yaxshilash yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.

✓ O'zbekiston BMTning “Elektron hukumat” reytingida 24 pog'ona yuqoriladi. 2030-yilga qadar mamlakatimizni ushbu yo'nalishda kuchli 30 ta davlat qatoriga kiritish maqsad qilingan.

✓ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Belarus Respublikasiga tashrifi davomida Minsk shahrida O'zbekiston – Belarus do'stligi xiyobonini barpo etish tashabbusi uchun mezbon davlat rahbari Aleksandr Lukashenkoga minnatdorlik bildirdi.

✓ Vashington shtati, Sietl shahrida yashovchi yurt-doshlarimiz tomonidan “O'zbek mahallasi” jamoat birlashmasi tuzildi. Tashabbusni shtat davlat kotibi Stiv Hobbs ham qo'llab-quvvatlagan.

TADQIQ



SO'Z VA SAHNA XURSHIDI

UZUMINI YEGANLAR...

Turli tantanalarda, nafis majlislarda yoki xilvat xiyobonlarda quyidagi bayt beixtiyor tilga keladi:
“Agar ko'nglimni shod etsa
o'shal Sheroz jononi,
Qaro xoliga baxsh etgum
Samarqand-u Buxoroni”.
Albattaki, yaxshi kishilarni hayratga solgan ushbu satrlar muallifini so'raganlarga Amir Temur Ko'ragoniy va Hofiz Sheroziy o'rtasida kechgan iliq mutoyibani eslatgan bo'lamiz va navbatdagi g'azalni kamoli ehtirom ila qiroat qilishga tutinamiz:
“Ayo soqiy, sunib joming,
qil ehson yashnasin dillar,

Ko'rindi avval ishq oson-u,
so'ngra tushdi mushkullar.”
Undan keyin shoir-u she'r-u shuurning qizg'in mashvarati boshlanib ketgay. Ammo bu yerda ham har galgidek, uzumini yeb, ha, mayli, boring ana, bog'ini so'raymiz-u bog'boniga hech parvo qilmaymiz... Aslida, g'oyibona tinglaganingiz ushbu satrlarni o'zbek tiliga asliyat sifatida o'giran mahoratli tarjimon Xurshid domla bo'ladilar. Keling, men sizga u kishi haqida eshitib bilganlarimni so'ylab berayin...

(Davomi 3-sahifada.)



TAQDIMOT

Xabaringiz bor, shu kunlarda yurtimizda "Islom sivilizatsiyasi: tinchlik, bag'rikenglik va ilm-ma'rifat yo'li" mavzusidagi I Xalqaro islom sivilizatsiyasi forumi bo'lib o'tmoqda. Unda dunyoning 50 dan ortiq davlatidan kelgan 300 ga yaqin jamoat arboblari, muftiylar, xalqaro tashkilotlar rahbarlari va ulamolar ishtirok etmoqda.

Martabali mehmonlar safida Ozarbayjon Respublikasi delegatsiyasiga boshchilik qilayotgan Kavkaz musulmonlari idorasi raisi, shayxulislom Oллоhshukur Poshshozoda ham ishtirok etmoqda.

E'TIROF

Kuni kecha "Renessans" kino uyining muhtasham zalida Oллоhshukur Poshshozoda hazratlarining "Qardoshlik va ittifoqchilikning oliy nuqtasi" kitobi taqdimoti ham yuksak saviyada o'tkazildi. Kitob 2026-yilda Bokuda chop etilgan bo'lib, uning o'zbek tiliga o'girma-sida O'zbekistonning Ozarbayjondagi elchixonasi jamoasi qatnashgan. Ushbu kitob, muallif ta'biriga ko'ra, Ozarbayjon va O'zbekiston o'rtasidagi abadiy do'stlikka bag'ishlangan badiiy solnomadir.

Kitob shunday so'zboshi bilan boshlanadi: "Ona vatanim Ozarbayjon bilan ikkinchi vatanim bo'lgan O'zbekiston o'rtasidagi abadiy birodarlik aloqalariga bag'ishlayman". Kitobni o'qishga muyassar bo'lgan odam bu shunchaki "ko'ngil uchun" aytilgan gap emasligiga iqor bo'ladi. Chunki: "Men umrimning eng muhim bosqichlaridan birini aziz O'zbekistonda o'tkazganman. ...Buxoroda Mir arab madrasasini ziyorat qilganimda, Toshkent Islom institutida bo'lganimda talabalik yillarimning hayajonli kunlarini eslayman, menga o'z oilasidek mehr bilan bag'rini ochgan insonlarni yodga olaman..."

Shuningdek, ikki qardosh xalqning shonli o'tmishi, ikki Davlatning birodarligi, Millat yetakchilarining birdamligi, tashqi va ichki siyosatda uzoqni ko'zlab, oqilona tashlanayotgan qadamlari e'tirof etiladi: "O'zbekiston rahbarining quvonchli kunlarda ham, murakkab va sinovli pallalarda ham chinakam birodarlik yondashuvini namoyon



etishi... Qardosh O'zbekistonning tuh-fasi – Fuzuli shahridagi Mirzo Ulug'bek nomidagi 1-sonli umumta'lim maktabi – Ozod Qorabog' va Sharqiy Zangazur hududlaridagi ilk birodarlik sovg'asidir".

Taqdimot so'ngida Shayx hazratlari so'z boshlaganlarida tarjimonga hojat yo'qligiga, ikki turkiy elning dili va tili azaldan bir ekaniga yana bir bor amin bo'ldik:

"Shayxulislom sifatida men dunyoning ko'plab davlatlarida bo'lganman, biroq O'zbekistondagidek ezu niyatga asoslangan bag'rikenglik muhiti, ma'rifatparvarlik va ma'naviyat masalalariga bunday yuksak darajadagi e'tiborni boshqa joyda uchratmaganman".

Davlatimiz rahbari tomonidan 2019-yilda Oллоhshukur Poshshozoda-ni "Do'stlik" ordeni bilan taqdirlangani ham Shayx hazratlarining ikki davlat o'rtasida, qolaversa, butun turkiy davlatlar birligi yo'lida ko'rsatayotgan shijoati va sharaflari xizmatlarining yuksak e'tirofidir.

Jamoliddin BADALOV

YANGI KITOBLAR

G'AROYIB VOQEALAR

"Feruzbek sekin orqasiga o'girildi. Yerdan yotgan kitobga razm soldi. Eshitganlariga ishonqiramay, ko'zlarini qo'llari bilan uqaladi.

– Nahotki, kitob gapirgan bo'lsa? – dedi o'ziga o'zi sekin ovoza.



– Ha, polvon bola, men gapirayapman. Qani, yoninga kela qol-chi. Yaqindan tanishib olaylik, – kitobdan yana ovoz keldi.

Feruzbek kitob tomon yaqinlashdi.

Bor kuchini bir joyga jamlab, kitobni yana ochishga qaror qildi. Uning qo'llari qaltirardi, ko'zlarini yumib sekin kitobni qayta ochdi..."

Xo'sh, keyin nima bo'ldi? Buning davomini bilish uchun xuddi ushbu asar qahramoni Feruzbek singari kitobni ochish kerak bo'ladi – bu bolalar yozuvchisi Tozagul Jumanova qalamiga mansub "Sehrlil kitob" qissasidir.

Kitob taqdimida yozilganidek, muallif bolalar ruhiyatini nozik his qiladi, shu bois, uning qahramonlari ishonarli tasvirlanadi. Asar tarbiyaviy ahamiyatga ega, ularda mehr-oqibat, do'stlik, halollik, kattalarga hurmat va tabiatga mehr kabi insoniy fazilatlar ulug'lanadi.

Endi yana bir parchaga e'tibor bering: "Dunyoning ishlariga sadag'ang ketsa arziydi. Bir-biridan ajoyib va g'aroyib voqealar guvohi bo'lgach, ko'zlaringga ishonmaysan. Barini ertakmi, deb o'ylaysan. Aslida, hammasi o'ngda – sen yashab o'tayotgan hayot sahnasida yuz berayotgan bo'ladi. Ba'zida o'zing ham turli-tuman hodisalarning qahramoniga aylanib qolasan... Akang qarag'ay hayoti ham juda qiziq voqea-hodisalar bilan davom etmoqda. Bu yil 5-sinfni tugatib, yozgi ta'tilda qishloqda tarallabedod qilib o'ynab yurardim. Javzo adog'i edi"...

Xo'sh-xo'sh? Voqeaning qiziq joyi endi boshlandi. Faqat buni bilish uchun bolajonlar



taniqli ijodkor Erpo'lat Baxtning "O'rmon olimpiadasi" kitobini, xususan, undagi "O'zimizning Quqquboy yoxud kelajakka sayohat" nomli ertak-qissani o'qib chiqishi lozim bo'ladi. Shuningdek, to'plamdan muallifning bolalarga atalgan she'rlari ham joy olgan.

Yosh kitobxonlarimizga tuhfa qilina-yotgan bu asarlar O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi homiyligida "Adabiyot" nashriyotida chop etilgan.

Nigina ISKANDAROVA

Boshlanishi 1-sahifada.

Seminar poytaxtimizdagi Adiblar xiyobonida buyuk mutafakkir Alisher Navoiy haykali poyiga gul qo'yish marosimi bilan boshlandi. Shundan so'ng ishtirokchilar joylashgan avtobuslar Zomin sari yo'lga chiqdi. Mehmonlarni Jizzax viloyati hokimligining mas'ul vakillari kutib oldi. Anjumanni O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi, O'zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyid samimiy tabrik so'zlari bilan ochib berdi. Tadbinning kirish qismi qizg'in mushoiraga ulanib ketdi.

Seminarining ikkinchi kunida yosh ijodkorlar nazm, nasr, badiiy jurnalistika, badiiy tarjima va baynalmilal adabiyot, bolalar adabiyoti, adabiy tanqid va dramaturgiya yo'nalishlari bo'yicha sho'balarga bo'linib, ustozlar sabog'idan bahramand bo'ldi. Ularga taniqli shoir va yozuvchilar biriktirilib, havaskor

ijodkorlarning har biri bilan individual ish olib borish imkoniyati yaratildi.

Seminar davomida ustoz adiblarining ijodiy tajribasi va saboqlari yoshlar uchun katta maktab vazifasini o'tadi. Ayniqsa, anjuman doirasida O'zbekiston xalq yozuvchisi Xayriddin Sultonov bilan uchrashuv va uning "Yaldo kechasi" kitobi taqdimoti, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi "So'z" loyihasi a'zolarining ushbu asar asosida sahnalashtirgan she'riy spektakli ishtirokchilarni yanada ilhomlantirib yubordi.

– Bu yilgi seminarimiz haqiqiy bayramga aylanib ketdi, – deydi O'zbekiston xalq shoiri Xosiyat Bobomurodova. – Hassos qalb bilan she'riyatga dadil kirib kelayotgan yoshlar ko'p ekan. Qo'shni davlatlardan kelgan vatandosh ijodkorlarni ham tingladik. Bu yerda faqat asarlarni muhokama qilmadik, balki erkin fikrlash, adabiyotga mas'uliyat



OGOHLIK

Bugun globalizatsiya va integratsiya jarayonlari insonlarga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatayotgandek. Buni biz birgina Sirdaryo viloyati Sirdaryo tumanida 2025-2026-yilning dastlabki 5 oyida 24 nafar voyaga yetmagan qizning viloyatdagi IIBga qarashli voyaga yetmaganlarga ijtimoiy huquqiy yordam ko'rsatish markaziga joylashtirilganida anglaymiz. Yana ham ayanchlisi, shu muddat mobaynida voyaga yetmagan 15, 16, 17 yoshli qizlarning 6 nafari ona bo'lgan.

QIZINI ASRAGAN – YUZINI ASRAGAN

Aholisi 150 mingga yaqin bo'lgan tumanda shuncha achinarli vaziyatning kuzatilishi barchamizni xavotirga solishi shart.

Yoki so'nggi ikki yilda Sirdaryo tumanining o'zidan 170 nafar farzandlar bobo-buvilar vasiyligiga qoldirilgan. So'rovlar jarayonida, ayniqsa, qizlarning tarbiyasiga bobo-buvilarning kuchi ham, quvvati ham yetmayotgani oydinlashdi. Bu esa yana yangi savollarga sabab bo'lyapti.

Bir qiz bolaning taqdiri – bir oilaning emas, butun jamiyatning masalasi. Chunki bugun e'tiborsiz qoldirilgan muammo ertaga kattaroq ijtimoiy masalaga aylanishi mumkin. Voyaga yetmaganlarning ona bo'lishi – jamiyatning tarbiya, mas'uliyat va himoya tizimi o'sha muhitda sust ishlayotganini ko'rsatuvchi oynadir.

Bu kabi salbiy holatlarni faqat oqibat sifatida emas, sabablar nuqtayi nazaridan ham tahlil qilishimiz kerak. Nega bunday holatlar sodir bo'ldi? Qaysi joyda tarbiya, nazorat yoki tushuntirish ishlarida bo'shliq bor? Qanday qilib yoshlarning huquqiy va ma'naviy himoyasini kuchaytirish mumkin?

Savollar ko'p...

Jamiyatning qiyofasi, avvalo, xotin-qizlarga bo'lgan munosabatda namoyon bo'ladi. Qizini asragan, uning ilm olishi, kasb egallashi va o'z o'rnini topishi uchun sharoit yaratgan millatning kelajagi ham mustahkam bo'ladi. Qizlar tarbiyasi – bu nafaqat oila, balki davlat, jamiyat va jamoatchilikning ham vazifasidir.

Bahrom BOYMURODOV



Bosh muharrir:
Iqbol MIRZO

Muallif fikri tahririyat fikri bilan mos kelmasligi mumkin.

Tahririyatga yuborilgan maqolalar muallifga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Mas'ul kotib: Shuhrat Azizov

Navbatchi muharrir:
Gulchehra Umarova

Adadi – 18 491
Shundan:
Kirill yozuvida – 6 902
Lotin yozuvida – 11 589
Media kuzatuvchilar – 85 424
Buyurtma: G – 740
Hajmi: 4 bosma taboq, A2.
Nashr ko'rsatkichi – 222.
Tashkilotlar uchun – 223.
1 2 3 4 5 6 6

Sahifalovchilar:

Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva



Manziliimiz:
Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoiy ko'chasi, 69-uy

Telefonlar:
Qabulxona: (71) 203-24-20
Devonxona: (97) 745-03-69
jadidgzt@mail.ru (71) 203-24-17
Jadid_gazetasi@exat.uz

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.

Bosmaxona manzili:
Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00
Bosishga topshirildi: 20:30

Sotuvda narxi erkin.



www.jadid.uz

Muassislar:



O'ZBEKISTON
YOZUVCHILAR UYUSHMASI



RESPUBLIKA MA'NAVİYAT
VA MA'RIFAT MARKAZI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
FANLAR AKADEMIYASI



MILLIY MASS-MEDIANI
QO'LLAB-QUVVATLASH
VA RIVOJLANTIRISH
JAMOAT FONDI



"SHAHIDLAR XOTIRASI"
JAMOAT FONDI